# 2-SIHFDA ONA TILI DARSLARINI REJALASHTIRISH

| Darslar tartibi | Darsda o'rganiladigan mavzu | Adabiyotlar ro'yxati, sahifasi, mashqlar |
|---|---|---|
| | **3-chorak: 9 hafta, 35 soat** | |
| 1 | Matnni savollar yordamida qayta hikoyalash, savollarga javob yozish. | 147-mashq |
| 2 | Yozma ish tahlili, yo'l qo'yilgan xatolar ustida ishlash. | 148-mashq |
| 3 | «14 yanvar — O'zbekiston Qurolli Kuchlari kunu» mavzusidagi matn ustida ishlash. | 149—151-mashqlar |
| | **Narsa va shaxs nomini bildirgan so'zlar** | |
| 4 | So'z — narsa, shaxs, belgi, sanoq yoki harakatning nomi. | 152—155-mashqlar |
| 5 | Kim? Nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar haqida umumiy tushuncha. | 156—159-mashqlar |
| 6 | Kimlar? Nimalar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar. | 160—163-mashqlar |
| 7 | Kim? (kimlar?), nima? (nimalar?) so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni bilib olish. | 164—167-mashqlar |
| 8 | Diktant. | |
| 9 | Diktant tahlili, xatolar ustida ishlash. O'rganilgan bilimlarni mustahkamlash mashqlari. | |
| 10 | Mavzuga oid so'zlarga so'roq berish va ularni guruhlash. | 168—171-mashqlar |
| 11 | Matnni so'roqlar yordamida yozma qayta hikoyalash. | 172—173-mashqlar |
| 12 | Yozma ish tahlili, xatolar ustida ishlash mashqlari. | |
| 13 | Kim? (kimlar?), nima? (nimalar?) so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar. | 174—176-mashqlar |
| 14 | Yaqin ma'noli so'zlar bilan tanishtirish. O'rganilganlarni mustahkamlash. | 177—180-mashqlar |
| | **Kishilarning nomi, familiyasi, hayvonlarga qo'yilgan nom, shahar, qishloq, ko'cha, daryo nomlarida bosh harf.** | |
| 15 | Kishilarning ism va familiyasida bosh harf. | 181—183-mashqlar |
| 16 | Kishilarning ism familiyasini to'g'ri yozish. | 184—185-mashqlar |
| 17 | 9 fevral — bobomiz Alisher Navoiy tavallud topgan kun. | 186—188-mashqlar |
| 18 | Ism va familiyani to'g'ri yozish yuzasidan mashq. | 189—191-mashqlar |
| 19 | Diktant. | |
| 20 | Diktant tahlili, xatolar ustida ishlash. | |
| 21 | Rasmlar va berilgan reja yordamida hikoya tuzish. Matnni bo'limlarga bo'lib yozish. | 192—193-mashqlar |
| 22 | Hayvonlarga qo'yilgan nomlarda bosh harf. | 194—197-mashqlar |
| 23 | Bosh harf bilan yoziladigan so'zlar va matn haqida o'rganilganlarni mustahkamlash. | 198—200-mashqlar |
| 24 | Shahar, qishloq, ko'cha va daryoga qo'yilgan nomlarda bosh harf. | 201—203-mashqlar |
| 25 | Bosh harf bilan yoziladigan so'zlarni mustahkamlash. | 204—206-mashqlar |
| 26 | Diktant. | |
| 27 | Xatolar ustida ishlash, o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash mashqlari. | |
| | **Narsa va shaxs harakatini bildirgan so'zlar.** | |
| 28 | Shaxs (kishi)lar va narsalarning harakatini bildirgan so'zlar haqida tushuncha. | 207—210-mashqlar |
| 29 | Harakatni bildirgan so'zlar. Matnni savollar yordamida qayta hikoyalash va yozish. | 211—212-mashqlar |
| 30 | Nima qilyapti?, nima qilyaptilar?, nima qiladi?, nima qiladilar? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar. | 213—216-mashqlar |
| 31 | Birinchi variant. | |
| | «8 mart — onajonlar bayrami» mavzysida matn tuzish yuzasidan mashq. Tabriknoma yozish. | 221—224-mashqlar |
| | Ikkinchi variant. | |
| | Ona tili va o'qish materiallaridan foydalanilgan holda o'tkaziladigan yaxlitlashtirilgan dars. | |
| 32 | Harakat bildirgan so'zlar haqida bilimlarni mustahkamlash. | 216—220-mashqlar |
| 33 | Rasmlar va rejaga qarab hikoya tuzish, Matnni o'qib, sarlavha tanlash va uch bo'limli bayon yozish. | 225—226-mashqlar |
| 34 | Bayon tahlili, yo'l qo'yilgan xatolar ustida ishlash. | 227-mashq |
| 35 | Harakat bildirgan so'zlar yuzasidan o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash mashqlari. So'roq gap tarzidagi reja yordamida hikoya tuzish | |
| 36 | Tekshirish diktanti. | |
| 37 | Diktant tahlili, xatolar ustida ishlash | |
| 38 | O'rganilgan bilimlarni mustahkamlash mashqlari. | |
| 39 | «Navro'z — bahor bayrami» mavzusidagi matnlar ustida ishlash. | |
| | Birinchi variant. | |
| | «Navro'z — bahor bayrami» matnini qayta hikoyalash, sarlavha tanlash. Reja tuzish va yozish. | 232—233-mashqlar |
| | Ikkinchi variant. Ona tili va atrofimizdagi olam materiallaridan foydalangan holda o'tkaziladigan yaxlitlashtirilgan dars. | |

# 2-SINFDA O'QISH DARSLARI REJASI

**3-chorak. 11 hafta, 50 soat.**

Otalar so'zi — aqlning ko'zi.

55-dars. Assalom. Qambar ota. Muqaddas so'z.

56-dars. «Ha» bilan «Yo'q». Tolib Yo'ldosh. Yaxshi so'z.

57-dars. Do'stlikning hosiyati. Do'st bo'ling.

58-dars. Iqror bo'ldi. Yolg'onchilik — sharmandalik.

59-dars. Yolg'onchi. Alisher Navoiy. Yolg'onchi o'zini aldar.

60-dars. Sinfdan tashqari o'qish.

61-dars. Ko'p ko'rgan — ko'p biladi. Qari bilganni pari bilmas.

62-dars. Yulduzlar qani buvijon. Ya. Sadullayeva. Tozalik — sog'liq garovi.

63-dars. Ibn Sino bobo — ulashar davo. P. Mo'min. Buyuk hakim.

64-dars. Do'st tutmoq haqida. («Qobusnomadan») Do'stlikni qadrlang.

65-dars. Rahmdil va e'tiborli bo'ling. Yusuf Tavoliy. Yaxshilikka — yaxshilik.

66-dars. Yaxshilikka — yomonlik. Yomonning ishi yomonlik.

67-dars. Kuychi. A. A'zamov. El qahri.

68-dars. Dadam ishdan kelsalar. P. Mo'min. Ota hurmati.

69-dars. Sinfdan tashqari o'qish.

70-dars. Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi dars.

71-dars. Ijodiy mashg'ulot: «Mening do'stim». Do'st tuting.

Kumush qish — misoli oqqush.

72-dars. Yil fasllari. Yil fasllarining o'zgarishi.

73-dars. Qish manzarasi. Har faslning o'z xislati bor.

74-dars. Qorboboning sarhisobi. Shodi Sattor. Qorbobo hafa emas.

75-dars. Javdar non. Non — kishiga darmon.

76-dars. Qish. Shukur Sa'dulla. Qish ne'mati — qor.

77-dars. Musavvir qorbobo. Qorboboning hunari.

78-dars. Qishda. (Ertak). Qishgi hodisalar.

79-dars. Sinfdan tashqari o'qish.

80-dars. Chumoli bilan chigirtka. Mehnatning tagi rohat.

81-dars. Qorbobo. San'at Mahmudova. Qorboboning do'stlari.

82-dars. Tabiat. Shodi Sattor. Tabiat madhi.

83-dars. Xushxabar. Mehribonlik.

84-dars. Tabrik. Faxrlanish.

85-dars. Ob-havo darakchilari. Ob-havoni bilish.

86-dars. Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi dars.

87-dars. Ijodiy mashg'ulot: «Kumush qish».

88-dars. Sinfdan tashqari o'qish.

Ertaklar yaxshilikka yetaklar.

89-dars. Quyoshbobo nurlari. Hayot manbai.

90-dars. Nima totli? Hamma narsa ham yaxshi.

91-dars. Maqtanchoq ayiq. Maqtanish — illat.

92-dars. Asalari bilan pashsha. Foydali jonivorlar.

93-dars. Ko'ngilchan o'tinchi. Yaxshilikka yaxshilik.

94-dars. Uzun terak. Manmanga javob.

95-dars. O'jar baliqcha. Kattalarni tinglash kerak.

96-dars. Dono dehqonbobo. Bekmirza Mahmudov. Dehqonga don afzal.

97-dars. Sinfdan tashqari o'qish.

98-dars. Quyoncha va ayyor tulki. Ayyorga ayyor bo'l.

99-dars. O'tinchi yigit bilan sher. Hamma narsani aql yengadi.

100-dars. Ur to'qmoq. Yaxshilikka yaxshilik.

101-dars. Oltin tuyoqli kiyik. Qanoatli bo'ling.

102-dars. Oq ko'ngil chol va hasis boy. Xasis kishi to'ymaydi.

103-dars. Olqar. Yetimning baxti.

104-dars. Sinfdan tashqari o'qish.

105-dars. Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi dars.

## ХОРИЖ ТЎЛҚИНЛАРИДА

**Афғонистоннинг ҳокимиятсиз Президенти Бурхониддин Раббоний Душанбега Тожикистон Президенти билан учрашиш учун келган. Кўриладиган масала Афғонистон можаросидир. Бурхониддин Раббоний бунгача Покистонга ташриф буюрган эди.**

***

**Марказий Осиёнинг беш республикаси раҳбарлари бугун Ашгабатда учрашаётирлар. Музокараларда минтақа давлатларининг ўзаро алоқалари масалалари муҳокамада бўлади. Мулозимлар учрашув тафсилотларини баён қилмаганлар. Аммо қўшма баёнот эртага эълон этилиши кутилмоқда. Ўтган йил май ойида кечган учрашувда минтақадаги газ қувурлари ва транспорт масалалари муҳокамада бўлган эди.**

***

**Жазоирдан келаётган хабарларга кўра, ўтган икки кун давомида рўй берган ҳужумлар оқибатида 20 киши ҳалок бўлган. Рўзномалар хабарига кўра, воқеалар марказий, ғарбий ва жанубий мавзеларда кечган. Биргина ҳодисада етти киши сўйиб ўлдирилган. Давлат мулозимлари бу гал ҳам исломий жангариларни айблаб чиқди.**

***

**Туркия полицияси Италия ва Юнонистонга ноқонуний чиқиб кетишга уринган икки юздан ортиқроқ одамни ҳибсга олган. Полицияга кўра ҳибсга олинганларнинг аксарияти Покистон, Бангладеш, Афғонистон, Сурия ва Ироқ фуқароларидир.**

**«Би-би-си» (Лондон)**

## ВОҚЕА

**Ярим тунда машинада кетяпмиз. Йўллар бўм-бўш. Ҳамроҳим ҳуқуқшунос, ўз касбини чуқур биладиган киши эди. Ҳар бир қизил чироқда тўхтаб, йўл очилишини кутиб туради. Ҳайратландим.**

**— Юравермайсизми, йўлда бошқа машина йўқ-ку?**

**Шунда у одам изоҳ берди:**

**— Ҳозир ҳеч ким йўқ, — деб қоидани бузсам, эртага қатнов кўплигида ҳам бу ҳолни такрорлашим мумкин. Қоидага риоя этиш фақат мажбурийлик эмас, ҳар кимнинг қатъияти, ҳурмати демак, қоидабузарлик мана шунақа бепарволикдан келиб чиқади.**

**— Қани эди ҳамма ҳам сизга ўхшаса, — дедим ҳурматимни ошкор этиб.**

**— Ўхшайди. Аста-секин ҳамма шу ишончга эришади. Қонунга риоя этиш фақат билим ёки қўрқув билан кафолатланмайди. Қонунни ҳурмат қилиш, унга амал қилиш юксак маданият, маънавият билан боғлиқ.**

**Кейин ҳам бу сўзларни кўп ўйладим. Ҳамроҳимнинг фикрлари баайни ҳақиқат эди. Бугунги кунда мамлакатимизда ҳуқуқий тарбияга катта аҳамият берилаётганининг боиси ҳам шунда.**

**Йўловчи**

Qutlug' qadamjolar

## «БОБУРТЕПА»ДА БОҒ

Шайбонийхон қўшинларининг беаёв таъқибига учраган Бобур Деҳқонобод тоғларининг қулай бир жойига яширинган. Сўнгра Шайбонийхон уни бу манзилдан ҳам қувганлигини эшитгандим. Маҳаллий халқ тоғнинг ана шу манзилини ҳанузгача «Бобуртепа» номи билан атаб, ҳанузгача бири-биридан қизиқ хотираларни авлоддан-авлодга гапириб юради. Деҳқонобод тумани, Ибн Сино жамоа хўжалигининг Оқработ қишлоғида жойлашган Мамадали Бойтўраев номли 7-ўрта мактаб директори Неъмат ака Бозоров мени «Бобуртепа»га олиб борди.

«Бобуртепа» — юксак тепалик. Чор атроф ям-яшил арчалар билан ўралган, мафтункор гўша. Хавф-хатардан сақланиш учун ҳам қулай. Мазкур тепаликка фақат бир томондан чиқиб келиш мумкин, холос. Қуйидан келаётганларни кузатиш қулай «Бобуртепа»нинг устки қисми поёнсиз текислик. Ривоятларга кўра, Бобур худди шу майдонда омоч қўшиб, ғалла экиб, ҳосил олган. Қарангки, у арпани май ойида экитириб, ҳосилини сентябрь ойида йиғиб олар экан...

Ҳамроҳим мени «Бобуртепа» атрофини айлантириб, Бобур шохнинг вақтинчалик масканини, омборхонаю отхоналарини, ғазнаси-ю ҳибсхоналари жойлашган ўринларни кўрсатди...

Беқиёс юксак ва сокин тепаликдан оқиб тушиб, пастликларга йўл олаётган шаршара сувлари беихтиёр диққатимизни ўзига тортди.

Худди ана шу шаршара пойида Бобур шохнинг ўтови бўларкан...

Афсонавий гўзал манзара. Шаршаранинг тиниқ ва зилол сувидан ичдик. Улуғларга гувоҳ бўлган улуғ шаршара... Ҳа, неларни кўрмаган бу кўҳна дунё.

«Бобуртепа»ни кузатарканман, беихтиёр кўз ўнгимда юртидан келтирилган қовунларни ҳидлаб-ҳидлаб «Нетай, юзим қаролиғ бўлди» дея нола чекаётган Бобур Мирзо намоён бўлди...

Англаб етдим, бахт тахтда эмас, бахт юртдадир...

Ҳамроҳим Неъмат Бозоров мени «Бобуртепа» устида бунёд этилган боғга етаклади. Оқработлик боғбонларга офарин! Юз гектар атрофидаги майдонда мевазор боғ бунёд этилибди. «Бобуртепа»даги Бобур номли боғда мева-чеванинг ҳамма туридан бор. Неъмат ака ўз жамоаси аъзоларига қарашли боққа бошлаб келди. Тоғ тепасида 5 гектарлик мактаб боғи. Зардоли, ўрик, қароли, мурид... ҳаммаси бўлиб, 1800 туп мевали дарахт. Ҳосилини айтмайсизми! Дарахтлар шохларини ерга эгиб турибди.

— Жамоамиз аъзолари билан биргаликда мана шу боғни бунёд этиб, парваришлаб ётибмиз, — дейди мактаб директори. — Ҳосилини ҳўлу-қуруқ сотамиз, пулини камкўстимизга ишлатамиз... Мева-чевамиздан тумандаги болалар боғчаларига етказиб бераяпмиз. Шу йилдан бошлаб меваларимиз қоқидан мактабимизнинг биринчи синф ўқувчиларига бепул шарбат қайнатиб беришни ҳам режалаштирганмиз...

Бу юрт аҳли аслида шундай яралган. Улар содда ва тўпори, ўта камтарин. Мақтанмоқ уларга ёт. Ҳа ишонинг, Деҳқонободда ибратли ишлар кўп. Бироқ уларни англаш керак, қадрига етмоқ даркор.

Биз «Бобуртепа»дан ортга қайтаётганимизда тун атрофга ўз чодирини ёйди. Тоғ янада сокинлашиб, салобатли кўриниш кашф этди. Ёниб турган гулхан шуълаларигина тоғда ҳаёт давом этаётганидан гувоҳлик бериб турарди. Шуниси қувонарлики, юртимизда барча улуғ қадамжолар, шулар жумласидан Бобур юрган йўллар ҳам обод бўлаяпти. Буларнинг барчаси руҳимизга тетиклик, қалбимизга чексиз ғурур бахш этади.

**Абдували ОБИДДИНОВ, «Маърифат»нинг махсус мухбири**

Bir tuman xushxabarlari

## КИЧКИНА ДЕМАНГ БИЗНИ...

*Қамаши туманидаги ихтисослашган мактабнинг 1-синф ўқувчилари Гавҳар Суюнова ва Сожида Намозоваларни кичкина деманг. Бу қизчалар табиатни, унинг бойликларини севишади, суратлар чизишади. Улар чизган «Қамаши ўтлоқларида» ва «Юртимнинг ўйинлари» суратлари яқинда Швейцариянинг Лизанна шаҳрида ўтказилган халқаро кўрик-танловда юқори баҳоланди. Ҳар иккала сурат Лозанна шаҳридаги кўргазмалар залига қўйилди.*

*Ёш рассомлар хурсанд. Республика Маданият ишлари вазирлиги ходими Жумақул Шомуродов яқинда мактабга ташриф буюриб, истеъдод эгаларига узоқ Швейцариядан жўнатилган фахрий ёрлиқлар ва қимматбаҳо совғаларни топширди.*

## БУХОРОЙИ ШАРИФГА САЁҲАТ

*Қувонч устига қувонч. Ихтисослашган бу мактабнинг ҳомийлари бор. 98-автокорхона директори Ғайрат Ҳамроев савобталаб киши. У ёш истеъдодларни қўллаб-қувватлашга, руҳини кўтаришга бел боғлаган инсон. Бу — масаланинг маънавий томони, аммо моддий жиҳатдан таъминлашда ҳам директор қўлидан келганини аямаяпти. Аълочи ўқувчилардан бир гуруҳи Бухоро шаҳрига икки кунлик саёҳатга бориб келдилар. Сарф-харажатларни автокорхона тўлади.*

## АНТИҚА ТАНЛОВ

*Ҳа, шундай. Бу танлов ҳам мазкур тумандаги «Гулдаста» болалар боғчасида ўтказилди. У «Қамашининг фасллари» деб номланган эди. Бунга «Гулдаста»нинг Анора Хушвақтова, Дилфуза Мирзаева, Людмила Федосова ва Шарофатхон Жалолиддинова раҳбарлик қилаётган гуруҳ тарбияланувчилари иштирок этишди.*

*Зардоли (ўрик), шафтоли, бодом ва толнинг қуриб қолган катта-катта шохлари танлаб олинди. Танлов шартларига кўра, ҳар бир гуруҳ бу дарахтлар мисолида Қамаши фаслларига мос қиш, баҳор, ёз ва кузни тасвирлашлари лозим бўлди.*

*Танлов якунланди. «Гулдаста»нинг кичкинтойлари бу тадбирда она табиатни беҳад севишларини исбот қилдилар. Уларга туман халқ таълим бўлимининг Фахрий ёрлиғи ва боғча мудираси Ўғилой Холбоеванинг шахсий совғаси топширилди.*

**Ўз мухбиримиз**

# БИРИНЧИ БОСҚИЧ ТАЙЁРГАРЛИКДИР

**ёхуд эртанги тараққиёт ана шу тайёргарликка боғлиқ**

(Боши 1-бетда)

олмаган. Миллий дастур мутахассисга ёд бўлиб кетиши, шуурига сингиб кетиши лозим. Илгариги тартиб-қоидалар билан солиштириш даркор. Дейлик, аввал ўқитувчи болаларни ЎҚИТАРДИ, янги тизимда ЎҚИШГА ЎРГАТАДИ. Булар бошқа-бошқа тушунчалардир. Илгари бола тингловчи эди, энди иштирокчи бўлиши керак. Ўқувчи ўзи ўқиши, конспект олиши, тезис қилиши, яъни, ахборот манбаларидан фойдалана билишга ўрганиши лозим.

Юқоридаги уқмаганлик ҳодисасини таҳлил қилиб, вазирликда «Мактаб директори анткетаси»ни туздик. Масалан, унда шундай саволлар бор. 1. Сизнинг фикрингизча янги Қонун ва Миллий дастурни қабул қилишнинг сабаблари нимада? 2. Эски ва янги таълим тизимлари орасидаги принципиал фарқ нимадан иборат. 3. Кадрлар тайёрлаш миллий моделининг асосий таркибий қисмларини кўрсатинг. 4. Сизнинг мактабингиз янги узлуксиз таълим тизимида қайси ўринни эгаллайди? 5. Миллий дастурнинг амалга оширилиш босқичларини кўрсатинг. 6. Миллий дастурни бажаришдан қандай натижалар кутилмоқда?

Тошкент шаҳар Собир Раҳимов туманидаги директорларни йиғиб, шу анткета саволларини тарқатдик. Биласизми, ўзбек мактабларидаги 35 фоиз директорлар ижобий жавоб беришди. 20 фоизи умуман жавоб бера олмади. Бу ҳол хавотиримнинг тўғри эканлигини тасдиқлади. Кейин бу анкета бутун шаҳарга тарқаб кетди. Ҳалиги ўқилган лекциялар, ўтказилган конференциялар бир ёқда қолиб кетиб, ҳар бир директор қўлига қалам-дафтарни олиб Миллий дастурни ўқиб конспект қила бошлади. Сўнг Юнусобод туманига бордик, 85 фоиз директор олти саволга жавобни ўзлаштириб олибди.

Ўрганиш, ўзлаштириш кейинги босқич учун «учиш майдони» ҳисобланади. Парвознинг омадли бўлиши ана шу «учиш майдони»даги тайёргарликка боғлиқ. Яъни, Миллий дастурни директор, ўқитувчи, маҳаллақўм, ҳатто ота-она ҳам ўзлаштириб олиши, кузатувчиликдан фаол иштирокчига айланиши керак. Фурсат ғаниматда яна бир фикр. Ривожланган давлатларда ҳеч бир ислоҳот ота-оналарсиз бошланмайди. Биринчи навбатда ота-оналарни тайёрлашади, малакасини оширишади. Улардан кейин ўқитувчиларга ўтишади. Чунки ота-она ўқувчининг дирижёри. Ахир ота-она унга шароит яратиб бермаса, назоратга олмаса, раҳбарлик қилмаса, боланинг билим олишида уларнинг ЭЪТИБОРИ сезилмаса, албатта, ўқишдан совиш бошланади. «Таълим тўғрисида»ги Қонуннинг 30-моддасида ота-оналарнинг жавобгарликлари бежиз таъкидланмаган. Президентимизнинг 1998 йилни Оила йили деб эълон қилишида чуқур маъно жамланган, деб биламан.

**— Биз — журналистлар жойларда бўлганимизда айрим ўқитувчилар, ҳатто айрим раҳбарларнинг юқоридан яна қандайдир кўрсатмалар кутаётганликларини кўрдик. Бунинг боиси нимада? Қолаверса, бизни мактабдаги жараён кўпроқ қизиқтиради. Чунки ҳужжат вазирликда ишланса-да, боғчада, мактабда амалга оширилади. Агар сиз мактаб директори бўлганингизда бу икки ҳужжатни ўқиб, қандай ҳаракат қилган бўлардингиз?**

— «Директор қандай бўлса, мактаб ҳам шундай» бўлиши ҳақида газетангизда айтгандик. Мактабда бажариладиган ишларни ўқитувчи бевосита директори раҳбарлигида амалга оширади. Демак юқорида айтганимиз, аввало, директорнинг ўзи икки ҳужжат замиридаги мақсадларни тўла тушуниб олиши унинг муқаддас вазифасидир. Энди уларнинг кутишига келсак. Ҳужжатлар яна чиқади. Лекин ҳеч бири «Таълим тўғрисида»ги Қонун ва «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»дан ўтолмайди. Асосий меъёрий ҳужжатлар қўлга тегди. Энди кутиш эмас, ҳар бир раҳбар ўзи ўйлаши керак.

Мен директор бўлганимда ишни нимадан бошлаган бўлардим? Аввало, раҳбар қўлида ҳужжатлар мажмуаси бўлмоғи лозим. Биринчиси, Президентимизнинг Олий Мажлиснинг IX сессиясида сўзлаган («Баркамол авлод — Ўзбекистон келажагининг пойдевори») нутқи. Иккинчи, «Таълим тўғрисида»ги Қонун. Учинчи, «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» ҳар бир ўқитувчининг кундалик ҳамроҳи бўлмоғи, лозим бўлса ҳар бир дарсига олиб кирмоғи зарур. Тўртинчи, вазирликнинг юқоридаги уч ҳужжатдан келиб чиққан ҳолда тузган тадбирлари. Бешинчи, вилоят, туман, мактабнинг шундай тадбирлари бўлиши керак. Агар ўқитувчи, синф раҳбари, мактаб директорларининг қўлида бу ҳужжатлар бўлмаса, уларни ўрганиб, ўзига режа тузиб, ҳар бир дарс жараёнига олиб кирмаса, қилаётган ишимиз яна умумий гаплардан иборат бўлиб қолади.

Шу билан бирга ҳар бир мактаб (70 нафар ўқитувчиси бўлса, 7 кишидан иборат) ижодий ишчи гуруҳи тузиши лозим. Ижодий гуруҳ нега керак? Дейлик ҳужжатларни ҳамма ўқиб, ўзлаштириб бўлди. Шу ижодий гуруҳ ўқитувчилардан таклиф олиб, мактаб шароитидан келиб чиқиб, нима ишлар қилиш лозимлигини белгилаб олиши зарур. Масалан, Президентимизнинг нутқида шундай сўзлар бор. «Мактаблардаги жараёнда ўқитувчи ҳукмрон. У боладан фақат ўзи тушунтираётган нарсани тушуниб олишни талаб қилади. Принцип ҳам тайёр. «Менинг айтганим-айтган, деганим деган» ёки яна бир жойида «Бизга битирувчилар эмас, мактаб таълим-тарбиясини кўрган шахслар керак». Хўп буни қандай қилиб мактаб шароитига мослаш, тадбиқ этиш мумкин, яъни бизга шундай эътироз билдирилган эди, мен нима қилиб тузатаман? Ижодий гуруҳ худди мана шундай қилиб Қонунда ва Миллий дастурда кўрсатилган ҳар бир банд тадбиқи тартибини белгилаб чиқади. Директор бошчилигида ота-оналарнинг кенгашида бу икки ҳужжат муҳокама қилиниши керак. Бунда асосий жиҳатлар тилга олинади. Масалан, 9-синфдан сўнг ота-она боласини ўқишдан олиб кетишга ҳаққи йўқлиги, Қонунда 9-синфдан кейинги таълим ҳам мажбурий деб белгиланганлиги тушунтирилади. Шунингдек, Қонунда бола 6—7 ёшдан 1-синфга қабул қилинади деган жойи бор. Болаларни 6—7 ёшдан мактабга қабул тартибини ота-оналарга тушунтириб, уларни ҳозирданоқ руҳан тайёрлаб бориш ҳам асосан директор ва ўқитувчилар зиммасида. Бу жуда оғир жараён ҳисобланади. Чунки ҳар бир ота-она боласини 6 ёшдан ўқитишларини хоҳлайди. Бунда боланинг соғлиги, лаёқати ва тайёргарлигини улар инобатга олишмайди. Бу ишлар бир соатлик ота-оналар мажлисида ҳам амалга ошмайди. Бунинг учун ота-оналар университетларини ташкил қилиш, йил давомида уларга Қонун ва Миллий дастурни сингдириб бориш фойдали бўлади. Демак мактабда амалга ошириладиган галдаги иш ота-оналар университетини ташкил этишдир.

Навбатдаги вазифа ўқувлар ўтгач, мактабнинг ўтиш даврига мўлжалланган истиқбол режасини тузиш ва уни мактаб педкенгашида тасдиқлаб олиш лозим. Шунингдек, ана шу истиқбол режа бажарилишининг назорат, яъни ижро қилиш графигини тузиш керак. Буларнинг барчаси ташкилий ишлардир. Амалий ишлар нималардан иборат?

Қонунда ҳозир бошлаш мумкин бўлган кўп жиҳатлар бор. Масалан, мактабнинг ўзини-ўзи кадр билан таъминлаш масаласини олайлик. Хўш қандай қилиб мактаб ўзини-ўзи кадр билан таъминлай олади? Илгари мактабни вазирлик кадр билан таъминларди, яъни институтни тугатганларни вазирлик тақсимларди. Ҳозир эса бошқарув мактабнинг зиммасида қолаяпти. Нега? Миллатимиз оилапарварлиги, умуман, психологиямиздан келиб чиқсак, ҳар биримиз туғилган қишлоқни афзал кўрамиз. Бунинг ёмон жойи йўқ. Демак ҳар бир мактаб ҳар йили 3—4 битирувчисини педагог тайёрлайдиган илмгоҳларга тайёрлаши лозим.

Бундан ташқари мактабга янгича педагогик технологияни олиб кирадиган гуруҳ ҳам тузиш керак. Табиийки бу иш ҳар бир ўқитувчининг ҳам қўлидан келавермайди. Бунинг учун янгиликни қабул қила оладиган ва уни амалда қўллай биладиган мактабнинг энг илғор ўқитувчилари танланади. Бу ишни ҳам ҳозирдан бошлаш мумкин.

Болаларнинг 1-синфга ҳар хил тайёргарликда келиши ҳам бошланғич таълимнинг ривожланишига тўсқинлик қилмоқда. Масалан, 10 фоиз бола махсус репетиторлар орқали, 15 фоизи болалар боғчаларида, қолган 75 фоизи эса оилада тайёргарлик кўрадилар. Репетитор ва боғчалардан келганларнинг сўз бойлиги ҳам, дунёқараши ҳам, ҳарфларни ўзлаштириши ҳам оилаларда тайёрланган болалардан кескин фарқ қилади. Уч хил даражадаги болаларга бир хил алифбо, бир хил талаб. Демак бу уч даражани бир-бирига мувофиқлаштириш лозим. Бунда биринчи галдаги вазифа Болаларни мактабга тайёрлаш марказларини (БМТМ) боғча, мактаб базасида, маҳаллада, оилаларда ташкил этиш мақсадга мувофиқдир. Агар ана шу вазифани уддаласак таълим тараққиёти учун катта ҳисса қўшган бўламиз. Бундай тажрибалар ривожланган давлатларда кенг қўлланилади.

Янги қонунимизнинг энг асосий хусусиятларидан бири битирувчининг, албатта, касб эгаллаб ҳаётга киришидир. Бунда 10 — 12 синфларда ўқувчиларимизнинг асосий қисми касб-ҳунар коллежларини (оз қисми академик лицейларда) таҳсил оладилар. 9-синфни тугатгандаёқ болада бирор касбга қизиқиш бирдан уйғонмаслиги ҳам табиий. Демак, 5 — 9 синфлардаги ўқиш жараёнида боланинг қизиқиши, иқтидори қобилияти ва истаги ўрганилиши, шу орқали у маълум касбларга руҳан тайёр бўлиб келиши лозим. Бунда ихтисослаштирилган мактабнинг роли беқиёс бўлади, деб ўйлайман.

**— Юқорида таъкидладингиз, янги Қонун ва Миллий дастурнинг энг асосий мақсадларидан яна бири касб таълимига бўлган эътибордир. Маълумки, янги касб-ҳунар коллежлари асосан иккинчи босқичда тўлиқ ишга тушади. Ҳозирги ҲТБЮларнинг ҳаммаси касб-ҳунар коллежларига айланадими? Уларнинг ўтиш давридаги вазифалари нимадан иборат?**

— Касб-ҳунар коллежлари асосан иккинчи босқичда ишга тушса-да, уларнинг қиладиган ишлари жуда кўп. Миллий дастурда бу борада «ўрта-махсус, касб-ҳунар таълими учун зарур моддий техника, ўқув-услубий ва кадрлар базасини тайёрлаш» таъкидланган. Мавжуд ҲТБЮларнинг моддий-техник базаси туман, хўжалик раҳбарлари ёрдамида коллеж мезонлари талабларига жавоб бериб, даъвогарлик даражасига кўтарила олмас экан, улар оддий 9 йиллик мактабга айланиб қолишлари турган гап.

**— Мактаб директорининг вазифалари ҳақида гапирдингиз. Албатта, у мазкур ишларни жамоаси — ўқитувчилари билан биргаликда амалга оширади. Ўқитувчи давр билан ҳамнафас бориши учун таъкидланган ишлардан ташқари яна нималарга эътибор беришини истардингиз?**

— Ўқитувчи ижодкор бўлиши лозим. Бу унинг учун доим изланишни талаб қилади. Хабардорликнинг манбаи мустақил мутолаадир. Демак ўқитувчининг мустақил мутолаа қилиш бўйича шахсий режаси бўлиши керак деб ўйлайман. Масалан у химия фани муаллими бўлсин. Биринчи — ўз фани йўналишидаги янгиликлардан, адабиётлардан доимий равишда хабардор бўлиши, иккинчиси — методик маҳорат бўйича янгиликлардан хабардорлик (янгича педагогик технология), учинчи — педагогик-психологик билимларни ошириш бўйича, тўртинчи — китоб, газета-журнал ўқиш орқали умумий маданиятни кўтариш. Агар мана шу гаплар ҳар бир ўқитувчининг индивидуал режасида бўлганида эди, педагогик нашрларимизга обуна ўз-ўзидан кўпайиб кетган бўларди.

**— Охирги савол. Ўтиш даврида оммавий ахборот воситаларининг вазифаси нималарда деб ўйлайсиз?**

— Янги Қонун ва Миллий дастурни ҳаётга тадбиқ этишда матбуотнинг ўзига хос ўрни бор, деган фикрдаман. Айни кунда эса матбуот бу икки ҳужжатнинг ўрганилиш жараёни, бунда икки қонунни ҳаётга тадбиқ этишда ижодий ёндашаётган таълим муассасаларини, шунингдек, камчиликларни ёритиб боришини истардим. Ўтиш даври масалалари борасида йирик мутахассис олимларнинг фикрларини бериб боришларини сўрардим. Академик лицей ва касб ҳунар коллежи борасида мақолалар, «Миллий дастур ўқитувчи нигоҳида», «Дастур — мактаб — оила — маҳалла», «Мактаб раҳбари бош ислоҳотчи», «Таълимда оиланинг ўрни» рукнларида материаллар, «Икки жойда икки хил манзара» рукнида таҳлилий-танқидий чиқишларни, шунингдек, «Фан ютуқлари мактабга» руҳида янгиликларни бериб бориш, «Мактабда психологик хизмат»нинг даражаси, унинг фойдалари ҳақида мақолалар берилишини кутардим. Янгича педагогик технология, яъни, болани ўқитиш эмас, балки ўқишга ўргатиш кераклиги муҳимлигини амалда исботлаётган педагогларнинг тажрибаларини батафсил ёритишларини, умуман, таълим тизимидаги ҳар бир янгилик ёки камчилик журналист нигоҳидан четда қолмаслигини истардим.

**— Самимий суҳбатингиз учун ташаккур.**

**Ҳ. САИДОВ**
**суҳбатлашди**

Taklif

# ТИНГЛОВЧИЛАР ТАЛАБИ

*Биз яқинда Абдулла Авлоний номидаги республика халқ таълими ходимлари малакасини ошириш Марказий институтида курс тингловчиси бўлдик. «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» ва «Таълим тўғрисида»ги Қонунни амалга ошириш, бозор иқтисодиёти шароити даврида мактабни бошқариш, мактаб ишини илмий режалаштириш бўйича қизиқарли машғулотлар олиб борилди. Айниқса, халқ таълими вазири Жўра Йўлдошевнинг «Кадрлар тайёрлашнинг миллий дастури»га доир маърузаси биз мактаб директорларига жуда маъқул тушди.*

*Таълимнинг узлуксизлиги тамойили асосида, босқичма-босқич амалга оширишга мўлжалланган бу дастурнинг мамлакатимиз тараққиётида аҳамияти катта.*

*Биз тингловчилар, кадрлар малакасини оширишнинг ва уларнинг касб билимлари, кўникмаларини яхшилаш, чуқурлаштиришга қаратилган институт раҳбарияти ва профессор ўқитувчилар фаолиятидан миннатдор бўлдик. Кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш юзасидан қуйидаги таклифларимиз бор:*

*— Тингловчилар билим савияси, малакасини ҳамда мутахассислигини ҳисобга олган ҳолда гуруҳлар ташкил қилиш.*

*— Машғулотлар дастурини тузишда уларнинг қизиқиши ва талабларини ҳисобга олиш.*

*— Машғулот ва маърузалар танлашда эркинлик бериш ҳамда турли йўналишда маърузалар ташкил қилиш.*

*— Берилаётган назарий билимларни амалиётга яқинлаштириш.*

*— Таълим беришнинг чет давлатлар илғор технологияси билан таништириш.*

*Фикримизча, кадрлар малакасини ошириш муҳим мезонлардан, Миллий дастурда ҳам бу алоҳида босқич сифатида кўрсатилган.*

**Муртазо РАББИМҚУЛОВ,**
**Жиззах вилояти Ғаллаорол туманидаги 27-мактаб директори, Ўзбекистон халқ таълими аълочиси,**
**Алишер ЭРГАШЕВ,**
**Сурхондарё вилояти Жарқўрғон туманидаги 45- мактаб директори**

# СПОРТ МАКТАБИ ЮТУҚЛАРИ ВА МУАММОСИ

Тошкент вилояти халқ таълими бошқармаси қошида фаолият кўрсатаётган 2-болалар ва ўсмирлар олимпия резерви спорт мактабининг ташкил топганига 20 йил тўлди.

Мактаб 1977 йилдан бошлаб ишлай бошлаганда қиличбозлик ва спорт акробатикаси бўлимларига эга эди. Ўша пайтда айнан ана шу спорт турлари билан вилоятимизнинг биронта шаҳар ва туманидаги спорт мактабларида шуғулланилмас эди. Кейинчалик спорт турлари бўйича янги бўлимлар очилиб, улар кўплаб ёшларни ўз кучоғига олди.

Мактаб бу кунга келиб 23 та спорт устаси, 120 та усталикка номзодларни етиштирди. 300 киши эса 1-тоифали спортчилардир. Афанасий Пак устозлик қилган А. Очилов ва Д. Заҳриддиновлар Атланта олимпиада ўйинларида кучли ўнлик сафидан ўрин олдилар. Мактаб тарбияланувчилари 20 йил мобайнида халқаро спартакиадалар собиқ Иттифоқ мактаб ўқувчилари спартакиадаларида қатнашиб, мукофотли ўринларни эгаллаб келдилар. Яна шуни таъкидлаш жоизки, мазкур мактаб тарбияланувчилари Республика Давлат спорт қўмитаси, республика Халқ таълими вазирлиги томонидан ўтказиладиган спорт тадбирларида йилдан-йилга фаол иштирок этиб, Тошкент шаҳар терма жамоалари аъзолари билан баробар беллашаётирлар. Ҳозирги кунда шу мактабда ўқиб тарбияланган моҳир спортчи даражасига кўтарилган собиқ ўқувчилар, жумладан, А. Абрамов, Д. Суханов, А. Толябов, О. Филимонова, С. Машковалар ёшларга устозлик қилаётирлар.

Қиличбозлик ва эркин кураш бўйича мактаб ўқувчиларининг муваффақиятли чиқишлари натижасига кўра, мактабга Республика Давлат спорт қўмитаси қарори билан Олимпия резерви мактаби унвони берилган.

Ҳозир мактабдаги ўқув-машқ машғулотларини 30 та олий маълумотли мутахассислар олиб бормоқдалар. Уларнинг 5 нафарини олий, 12 нафарини 1-тоифали мутахассислар ташкил этади.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, мазкур мактаб шу кунгача ўзининг махсус спорт базасига эга эмас. Шу боис барча ўқув машғулотлари Чирчиқ, Олмалиқ, Бекобод шаҳарлари, Зангиота, Қибрай туманларидаги умумтаълим мактабларининг спорт залларида ўтказиб келинмоқда.

Назаримизда мактаб учун махсус спорт базаси биносини қуриб бериш айни мақсадга мувофиқ бўлур эди.

**К. АМИРЖОНОВ,**
**Тошкент вилояти ПХМОИ «Ахборот ва тарғибот» бўлими бошлиғи**

# СОВРИНДОРЛАР БИЛАН УЧРАШУВ

**Тошкент вилояти педагог ходимлар малакасини ошириш институти «Ахборот ва тарғибот» бўлими ташаббуси билан 1992-97 йиллар давомида вилоят бўйича ўтказилган ўқитувчилар кўрик-танлови совриндорларининг курс тингловчилари — ҳамкасблари билан учрашуви бўлиб ўтди. Учрашув Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонунини ҳаётга татбиқ қилиш» мавзуига бағишланди.**

**Кечада институт педагогика ва психология кафедраси доценти Абдуманноп Тожиев «Таълим тўғрисида»ги Қонун ва «Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури»да таълим-тарбия муаммолари», ижтимоий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси Фазлитдин Ғиёсов «Таълим тўғрисида»ги Қонун ва «Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури»нинг ижтимоий-сиёсий моҳияти» каби мазмунда маъруза қилдилар.**

**Тингланган ҳар икки маъруза юзасидан йиғин қатнашчилари берган саволларга маърузачилар атрофлича жавоб қайтардилар. Кўрик-танлов совриндори Н. Зуҳурованинг таълим-тарбияни замон талаблари даражасига кўтаришдаги ўқитувчининг ўрни, М. Ҳамидованинг ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги мураккаб педагогик вазиятларни бартараф қилиш тўғрисида ўз иш тажрибаларидан келиб чиққан ҳолда билдирган фикр-мулоҳазалари ҳам қатнашчиларни ғоят мамнун қилди.**

**Турсуной ИСМОИЛОВА**

# САЙРОҚИ ҚУШЛАР ТИЛМОЧЛАРИ

**(Боғча тарбиячиларига бағишлов)**

*Буни ёзишга бир боғча тарбиячисини яхши билганим сабаб бўлганди. Юқоридагидек сарлавҳа қуйдиму, «тилмоч» сўзи ҳақида ўйлай бошладим. Аниқ тасаввурим бўлса-да, «Ўзбек тилининг изоҳли луғати»ни қўлимга олдим. «Тилмоч» — бир тилдаги гап ёки нутқни бошқа тилга, оғзаки тилга таржима қилиб берувчи таржимон деб изоҳ берилган эди. Луғатни ёпдим-у бир зум хаёлга толдим.*

*Ўйласам, сизнинг вазифангиз луғатда изоҳ берилган тилмочнинг вазифасидан ҳам қийинроқ экан. Чунки сиз митти қалбчаларнинг, мурғак ва нозик кўнгилларнинг тилмочи экансиз. Сиз бурро-бурро оғзаки нутқлар, қатор-қатор сержило гаплар тингламайсиз. Луғатда ёзилганидек, у тилдан бу тилга тилмочлик қилувчилардан катта фарқингиз шуки, сиз болажонсиз, болаларга жонфидосиз. Сиполик сиздан буткул йироқда. Касбингиз сиполикни ёқтирмайди. Мен сизни у тилмочлардан ўн карра устун қўяман. Исботини ҳам ўз ўрнида айтсам мақбулдир. Сиз сўзлай олганнинг ҳам, сўзлай олмаганнинг ҳам тилмочисиз. Гуруҳингизда йигирматадир, ўттизтадир, бариси ўз болангиздек сизга ардоқли. Жажжиларнинг ҳаммаси ҳам сўзамол эмас. Қайси бирида озгина ўкинч, қайси бирида озгина маъюслик кўрсангиз лоқайд туролмайсиз. Тиззаларингизни букиб, унинг ҳузурига тиз чўкасиз. Тарбиячисини ўзи тенги бўй билан кўнгил сўраётганидан қалби юмшаган болакай ёки қизалоқ калаванинг бир учини чиқаргандай бўлади. Жон узиб икки-учта сўз оласиз. Тилмочлик билан воқеа моҳиятини англайсиз. Шу куни уни яхши сўзлар билан бошқалардан кўра мўлроқ сийлайсиз. Ҳа, сизнинг касбингиз шундай. Баъзан сўзсиз имо-ишоралардан ҳам мазмун ўқишингиз керак.*

*Ҳар тонг махсус аравачаларда кўпроқ оналарининг ёки ака-опаларининг ҳамроҳлигида боғча томон йўл олаётган жажжиларнинг чеҳраларига кўзим тушади. Шаҳзодачалардек ёки маликалардек ястаниб бораётганликларини кўрсам севиниб кетаман. Тўғри, боғча деса, юраги безиллайдиган, ҳар қандай қанд-қурсли хушомадларга ишонмай оёқ тираб борадиганлари ҳам учрайди. Унинг оқшомга қадар кечадиган ярим кунини қандай ўтганлиги ҳақида ўйлайман. Болаликнинг тили ширин бўлган пайтлари*



*бўлади. Боғчага шахсан отаси ёки онаси кузатиб қўйишини хоҳлайди. Нодиржон ўғлимизнинг одати худди шундай эди. Эсимда, у бир тонг одатидек бошимга келди.*

*— Дада, туринг, боғчамга кеч қоламан.*

*— Аканг кузатиб қўя қолсин, — дедим ундан илмоқли гап кутиб.*

*— Боғча опам айтганлар, боғчага келишда ҳам, кетишда ҳам дадангиз ёки онангиз билан келиб кетинглар, деб. Бўлмаса боғча опамга айтаман сизни.*

*— Бўпти, айтмагин, — дейман-да унга эргашаман.*

*Бир куни ўғлим қўлида таклифнома кўтариб боғчадан келди. Ўқидим. Ота-оналар ўқувига таклифнома экан. Боланинг амри подшонинг амридан баланд дейдилар. Истамайроқ турсам-да кўндирди.*

*— Бормасангиз боғча опам хафа бўладилар, — деди илтижоли оҳангда.*

*Бордим. Минг шукрки, хурсанд бўлиб қайтдим. Ҳар бир боланинг гуруҳдаги хатти-ҳаракати, руҳияти ҳақида юрак-юракдан суҳбат бўлди.*

*— Ўғлингиз бир оз такасалтангроқ ўсаяпти. Уйда баъзи енгил ишларни буюриб ўргатинг.*

*Неъматжон деган боланинг онаси: — Рост, — деди ўрнидан туриб, — уйда бир оз эркароқ.*

*— Шоҳидахоннинг кам-кам йўтали бор. Ҳамшира қараяпти. Ўзингиз кечқурун алоҳида қаранг. Шоҳиданинг онаси раҳмат деб қўлини кўксига қўйди.*

*Тарбиячи менга юзланди. Нодирингиз уйқусида алаҳсирайдиган бўлган. Менимча, қуввати кам. Ёнғоқ, майиз сингари сервитаминроқ нарсалардан қарашмасангизлар бўлмайди. Бола ёшликдан куч йиғсин...*

*Уйга кириб келишим билан ўғлим олдимга чопқиллаб чиқиб қарши олди:*

*— Боғча опага учрашдингизми?*

*— Ҳа, учрашдим, — дедим.*

*— Сайроқи қушчаларимизни кўрдингизми?*

*— Кўрдим.*

*— Аквариумдаги тирик балиқларни-чи?*

*— Уларниям кўрдим.*

*— Қушларимиз бирам сайрайдики, уларнинг тилини фақат боғча опамиз тушунадилар. Ўғлимнинг: «қушларнинг тилини фақат боғча опамиз тушунадилар» деган сўзлари хаёлимга ўрнашиб қолди.*

*— У ҳаммангизнинг тилингизни тушунади. Сайроқи қушлар иккита эмас, сиз ҳаммангиз «сайроқи қуш», дейман ўзимча. Болажон тарбиячилар эса дунё кишиларининг қалби болалар қалбидек мусаффоб бўлишини истайди. Нозим Ҳикмат ёзганидек:*

*Дунёни болаларга*
*берайлик,*
*Бир кунлик бўлса ҳам*
*ўргансин дунё ҳамжиҳатликни.*
*Дунёни болаларга*
*берайлик,*
*Каттакон бир олма*
*каби берайлик,*
*Иссиққина бир нон*
*бурдаси каби...*

**Дилмурод ЖАББОР**

